

ONA TILI TA'LIM JARAYONINI ADABIYOTGA BOG'LASH
USULLARI

Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich
Asqaraliyeva Dilshoda Xojiakbar-
qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til ta'limining o'ziga chambarchas bog'liq bo'lgan adabiyot bilan bog'lab ta'lim berish usullari haqida bir qancha metodlar ko'rib chiqiladi. Ta'limda bir fan ikkinchisini qoplagani kabi, tilni adabiyotga bog'lash o'quvchi ongida bilimni samarali eslab qolishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: adabiyot, Navoiy asarlari, "Hayrat ul-abror" dostoni, poema, psixologik qarashlar, frazeologiya.

Annotation: This article examines several methods of teaching language in close connection with literature. Just as one subject complements another in education, linking language with literature helps students retain knowledge more effectively.

Keywords: literature, works of Navoi, Hayrat ul-abror poem, poetry, psychological perspectives, phraseology.

Milliy tilni chuqur o'zlashtirish ta'lim-tarbiyaning asosiy jihatlaridan sanalar ekan, o'quv fanlarining asosi hisoblangan ona tilini o'rgatish jarayonida dasturga kiritilgan, darcliklarda berilgan materiallar bilan cheklanmay, o'rganiladigan nazariy qoida-ta'riflarni asoslashda amaliy misollarning o'rni bilan **adabiyot faniga**, xususan, A.Navoiyga taalluqli bo'lishiga erishish mumkin.

Navoiy ijodi shunday boy manbaki, ulardan ona tili darslarida to'g'ri foydalanish o'quvchilarning grammatik qoidani chuqur o'zlashtirib olishlari bilan birga, ularda yuksak insoniy fazilatlarni ham shakllantirishda samarali xizmat qiladi.

Sog'lom avlodni tarbiyalash vazifasi dolzarb qilib qo'yilayotgan hozirgi sharoitda ustoz hikmatlaridan ta'lim va tarbiya jarayonida o'rinli foydalanishni hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Navoiy o'z asarlarida sanab o'tgan insoniy va ijobiy sifatlar asosida

soʻz zanjiri tuzdirish mumkin. Masalan: muruvvat-tavozeʻ-eʻtiborli-saxovatpesha-ahli ilm-maʻrifat va hokazo.

Lotin yozuvida bitilgan, yangi yaratilgan ona tili dasturi va darsliklari oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishga, nutq uslubini shakllantirishga, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yoʻnaltirilganligi dars jarayonida amaliy ishlarga eʻtiborni kuchaytirishni taqozo qiladi.

«Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari»¹ da koʻrsatilgan fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, bogʻlanishli nutq, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar, ularning muhim belgilarini bilib olish, izohlay bilish va shu tushunchalar bilan bogʻliq grammatik atamalarni oʻzlashtirish jarayonida Navoiy bobomizning boy ijodiy merosiga oid kichik-kichik suhbatlar tashkil qilish oʻquvchilarning ahloqiga ijobiy taʼsir qiladi.

Navoiy bobomiz asarlar yozishda faqatgina oʻzbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmay, boshqa tillardan ham unumli foydalanganlar. YOZuvchi Oʻtkir Hoshimovning qayd etishicha, Pushkin oʻz asarlarida 21 ming, Servantes 18 mingga yaqin, Shekspir salkam 20 mingta, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta soʻz ishlatgan. Bunda donishmand bobomiz faqat turkiy emas, arabiy, forsiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan¹.

Masalan, "Uyushiq boʻlaklar" mavzusini oʻtish jarayonida keltirilgan quyidagi misollardan uyushiq boʻlaklarni toptirish bilan birga oʻtkazilgan kichik-kichik suhbatlar oʻquvchilar axloqiga ijobiy taʼsir qiladi:

1. Ustoz nafaqat davlat arbobi, tarjimon, shu bilan birga tilshunos olim sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan.

2. Navoiyning maqsadi oʻz zamonasining barcha olimu shoir, bastakoru rassom, meʼmoru duradgorlarini yurti obod etishga jalb qilish edi.

¹ Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari. "Maʼrifat" gazetasi, 2009 yil, 18 avgust, 67-son.

¹ Ў.Хошимов. "Дафтар хошиясидаги битиклар". Тошкент. "Ўқитувчи" нашриёти, 1985 йил, 102-103-бетлар.

Undalmali, kirish soʻzli, birikmali, uyushiq boʻlakli gaplardan hamda koʻchirma va oʻzlashtirma gaplardan toʻgʻri va oʻrinli foydalana olishga oʻrgatishda quyidagi misolardan foydalanish mumkin.

Undalmali gapga:

Jondin seni koʻp sevarman, ey umri aziz,

Sondin seni koʻp sevarman, ey umri aziz.

Kirish soʻzliga:

«Maʼlumki, siz (Navoiy koʻzda tutilyapti) Xurosonda turar ekansiz, har qanday iltimosingiz boʻlsa hurmat bilan qabul qilinadi»².

Uyushiq boʻlakliga:

Koʻnglim ichra sarv oʻqdur, gʻuncha paykon, gul tikon,

Dahr bogʻi ichra mundoq gulistone topmadim.

Til taʼlimini berish jarayonida Navoiy hayoti va ijodi misolida tarbiyalash imkoniyatlari, oʻtilgan mavzularni test vositasida takrorlashda ham, oʻquvchilar bilimni sinash-tekshirishda ham mavjud.

Hazrat Navoiyga mehr-muhabbat uygʻotishda tarqatmalar uchun quyidagicha jummalarni olish mumkin:

I-tarqatma

«Navoiyxonlik» soʻzida nechta morfema (maʼnoli qism) bor?

a) 2 ta; v) 3 ta; s) 4 ta; d) 5 ta; e) 6 ta.

2-tarqatma

Navoiy satrlaridan sifatlovchi vazifasida kelgan ravishni belgilang?

a) Oz soʻz demakning manfaatida va koʻp soʻzning mazarratida;

v) Temurxon naslidan sulton Ulugʻbek, Ki olam koʻrmadi sulton

aningdek;

s) Dedi: Har ishni qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod.

² Хондамир. "Макоримул-ахлоқ". Ғ. Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, Тошкент, 1967 йил, 17-бет.

- d) Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu afsonani hikoyat;
e) emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq.

3-tarqatma

Sifatning sintaktik vazifasini aniqlang.

Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi, YUz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.

a) ega; v) kesim; s) to'ldiruvchi; d) aniqlovchi; e) hol.

Alisher Navoiyning shaxsi g'oyat serqirraligi, ijodi cheksiz ummonligiga doir quyidagi matnni yozma nazorat ishi sifatida olib, so'ng nazorat ishi tahlili mashg'ulotida matnga doir kichik suhbat tashkil qilish, hazrat asarlaridagi xalqchilik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, majozilik, botiniy va zohiriy ma'nolar haqida fikrlashish o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi.

Til ta'limini adabiyotga bog'lashda baxt va shodlik kuychisi hisoblangan H.Olimjon she'rlari takrorlanmasligi, o'ziga xosligi, o'quvchini to'qinlantirishi bilan o'ziga tortadi. O'ziga tortuvchi kuch sabablaridan biri shoirning badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalana olganligi ham bo'lsa kerak. SHoirning mahorati uning qator asarlarida, ayniqsa, «Zaynab va Omon» dostonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

«Zaynab va Omon» dostoni barmoq vaznida yozilgan. SHoir tabiat manzarasini aks ettirish orqali qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. Poemadagi har bir bob o'zining kompozitsiyasiga ega.

Muallif dastlab tasvirlanishi lozim bo'lgan voqeaning ekspozitsiyasini yaratadi. So'ng voqeaning tasviri va uning rivoji keladi, nihoyat o'ziga xos ixchamlik bilan bu bob yakunlanadi. Har bir bobning kompozitsion xususiyati shu tahlilda tuzilgan.

Ijodkor o'z asarining ichki musiqiyiligini kuchaytirish niyatida ayrim tovushlar va hijolarning ohangdoshligini vujudga keltiradi. Masalan:

Bahor ichra nahorlar topdim.

YOki

Omon topdi bunda parcha non,
Non demakim, Omon topdi jon.

Dunyo unga ko‘zal ko‘rindi,
O‘rtandi-yu, achindi joni,
Joni emas, butun jahoni.
Yuzlandi-yu, rangi bo‘zlandi,
G‘am ichida qizg‘in bir otash.

Mazkur she‘riy parchalardan “Fonetika” bo‘limini o‘rgatishda misolga olish mumkin.

Frazeologiya - tilshunoslik predmetlaridan biri sifatida hozirgi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda. Frazeologiya ma‘lum bir tildagi barqaror so‘zlar bog‘lanmasi yoki frazeologik iboradar to‘g‘risida bahs etadi. Uni o‘rganish tarixiga ko‘z tashlaganda, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, u dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo‘lgan. Ma‘lum badiiy asarni bir tipdan ikkinchi bir tipga tarjima qilganda, barqaror so‘zlar bog‘lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo‘lmay qolgan. Bunda o‘sha tillarda mavjud bo‘lgan frazeologik iboralar o‘rganila boshlangan. SHunday qilib, frazeologiya birinchi marta adabiyotshunoslik predmeti sifatida o‘rganilgan. Keyinchalik, tug‘atlarda so‘z ma‘nolari izohlangan. SHundan so‘ng frazeologik iboralar ma‘nosi ularning grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham tekshirila boshlangan. Hozirgi davrda frazeologiya masalalari ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik sohalarida o‘rganilmoqda.

Frazeologik iboralar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo‘lishi, diniy qarashlarni ifodalashi, turli kasb-hunarga va turmushning xilma-xil sohalariga doir bo‘lishi mumkin. Bunday hollar frazeologik iboralarni stilistik nuqtai nazardan o‘rganishga imkon beradi. Frazeologik iboralarga grammatik nuqtai nazardan qaraganda, bunday iboralarning bir xili so‘zga teng kelib, bir ma‘noni anglatadi. Boshqa xillari so‘z birikmasiga teng bo‘ladi, ba‘zilar esa gapga teng kelib, nisbiy tugal

fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra, frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo'lish mumkin:

Buni Muhammad Yusuf she'riyati misolida ko'rib chiqamiz,

1. So'zga teng kelgan frazeologik iboralar:

Qo'li ochiq

Mehri daryo

Mushti qattiq

Ko'ngli bo'sh

Ko'ngli bo'sh - ko'ngilchan, rahmdil. Ammo qalb tan olmas, u o'sha-o'sha, Qarshimda boladek dardin yoradi¹.

Dardini yormoq - tashvishga solib yurgan yashirin ish - uylarini o'ziga yaqin olib aytmoq.

Yulduz bo'lib turar balki ko'kda balqib,

Ko'lga cho'kib ketishi balki ko'ngli yarim.

Ko'ngli yarim - xotirjamligini yo'qotgan.

Nomardlardan yuzin burgan elatsan,

Dor ostida kulib turgan elatsan.

YUzin burmoq - qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burmoq.

2. So'z birikmasiga teng kelgan frazeologik iboralar:

Totuv yurtida tuproq o'zin tog' aylagay,

Bir-birini qo'llagan el kam bo'lmagay.

(M.Yusuf «Ulug'imsan Vatanim»)

Bir-birini qo'llamoq - hamjihat bo'lmoq, yakdil bo'lmoq.

Meni bir o'y qiynaydi yomon,

YUrak yana o'ynaydi yomon.

Yuragi o'ynaydi - yurak urishi odatdagidan ko'ra tezlashdi va kuchaydi. Qalbi hayajonga to'ldi...

¹ М.Юсуф. «Эрка кийик» 50-бет.

Bir boplay dedimu tilimni tiydim,
Mayli, odam qurib, shunga so‘z deymi?²

Tilini tiymoq - biror fikrni aytishdan saqlanmoq.

3. Gapga teng frazeologik iboralar:

Bosh bir kun tosh yostiqa etar,
Ruh to‘tisi tanni tark etar.

Boshi yostiqa etmoq - kasal bo‘lib yotib qolmoq.

O‘n gulidan bir guli ham ochilmay,
Umri xazon bo‘lib ketgan o‘g‘donlar.

O‘n gulidan bir guli ham ochilmagan

Husn - jamoli endigina namoyon bo‘la boshlamoq.

Pahlavon yigitcha, polvon yigitcha,
Dimog‘i osmonni olg‘on yigitcha³.

Dimog‘i osmonni olgan - kibr-havoli, kekkaygan, kalondimog‘.

Kengashsangiz tor dunyolar keng bo‘lardi,
Ergash yoqa bo‘lsa, Shermat eng bo‘lardi⁴.

Biri yoqa, biri eng bo‘lmoq - bir tan, bir jon bo‘lmoq, yakdil, hamjihat bo‘lmoq.

Bulardan tashqari uning lirikasida xayol bosar, ko‘ngli buzildi, ko‘krak kerdi, qovog‘i osildi, boshini edi, nam tortmoq, oq-qorani tanimoq, ko‘ngilga siqinmoq, boshingni tik tut kabi minglab frazeologizmlarni uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ulug‘ so‘z san‘atkori M.Yusuf frazeologizmlardan unumli foydalandi, ulardan foydalanish asosida misralarning badiiyligini, tasviriy ifoda kuchini oshiradi, mazmunni kengaytiradi. Uning tengsiz so‘z san‘atkori ekanligini tilimiz xazinasida mavjud bo‘lgan frazeologizm imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanganidan bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

² M.Yusuf. «Улуғимсан Ватаним» 105-бет.

³ M.Yusuf «Улуғимсан Ватаним» 100-б

⁴ M.Yusuf «Эрка кийик» 33-бет

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent: "O`zbekiston". 2015 yil.
2. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: "O`zbekiston". 2011 yil.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi-ning majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 30 yanvar`.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 28 yanvar`.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. - Toshkent: "O`zbekiston", 1990. – 410 bet.
6. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida. – Toshkent: O`zbekiston, 1997. – 326 bet.
7. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 176 bet.